



QASHQADARYO VILOYATI SHAHARLARINING KLASSIFIKATSIYASI VA FUNKSIONAL TIPLARI

Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich

Ilmiy rahbar, BuxDPI geografiya kafedrası dotsenti, g.f.n

Rahimov Shahzod Xasan o'g'li

BuxDPI 4-kurs 2GIQ-21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi O'zbekistonda hozirgi kunda kechaytogan shaharsozlik ishlari va shaharlar aglomeratsiyasi ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati, infratuzilmalar samaradorligi, ubranizatsiya ko'rsatichlari va suburbanizatsiyaning vujudga kelish omillari o'ragnishga bag'ishlangan

Kalit so'zlar: Habitat, aglomeratsiya, urbanizatsiya shaharlar to'ri, demografiya ,aholi zichligi, qishloq aholisi,shahar aholisi, Qarshi shahri, Shahrisabz shahri, shaharlar klassifikatsiyasi, shaharlar funksional tiplari

Аннотация: Данная статья посвящена градостроительным работам и агломерации городов в современном Узбекистане, их социально-экономическому положению, эффективности инфраструктур, показателям убранства и факторам возникновения субурбанизации

Ключевые слова: среда обитания, агломерация, урбанизация сеть городов, демография, плотность населения, сельское население, городское население, город Карши, город Шахрисабз, классификация городов,функциональные типы городов



Abstract: This article is devoted to the current development of urban planning and urban agglomeration of kechaytogan in Uzbekistan on the basis of their socio-economic status, efficiency of infrastructures, indicators of urbanization and factors of the emergence of suburbanization

Keywords: Habitat, agglomeration, urbanization urban grid, demography, population density, rural population, urban population, Qarshi city, Shahrizabz city, urban classification, urban functional types

O‘zbekistonda hozirgi kunda kechaytogan shaharsozlik ishlari va shaharlar aglomeratsiyasi ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati, infratuzilmalar samaradorligi, urbanizatsiya ko‘rsatichlari va suburbanizatsiyaning vujudga kelish omillarini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar yuzasidan yechim va takliflar tayyorlash muhim ilmiy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonining borishi haqida Prezident va hukumat tomonidan tegishli qarorlar bilan mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ijrosini ta’minlash, shuningdek, hududlar va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonlari qabul qilingan. Dunyoda shaharlarsozlik va shaharlar yaratish keng ma’suliyatli va dolzarb ish bu davlatlar va aholi farovonligi uchun juda katta xizmat qiladi. Shu boisdan ham O‘zbekistonda va dunyoda juda ko‘plab ishlar va dastur qonun va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Xususan dunyoda xalqaro shahsozlik dasturi



mavjud bo'lib u BMT tomonidan ishlab chiqilgan. Birlashgan Millatlar tashkilotining aholi punktlari dasturi (BMT-Habitat) – avvalgi nomi: Birlashgan Millatlar tashkilotining aholi punktlari markazi - tushuntirish va targ'ibot ishlari, siyosat ishlab chiqish, salohiyatni oshirish, bilimlarni to'plash va hukumatlar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi sheriklik aloqalarini mustahkamlash orqali aholi punktlarining barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi. BMT-Habitat 1978 yilda tashkil etilgan. Bu "Habitat kun tartibi" ni amalga oshirish va Birlashgan Millatlar tashkiloti tizimida aholi punktlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha etakchi muassasa bo'lib, uning diqqat markazida ikkita ustuvor yo'nalish mavjud: hamma uchun to'g'ri uy-joy bilan ta'minlash va barqaror shaharsozlik. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Habitat vazifalari, shuningdek, 2020 yilga kelib 100 million xaroba aholisining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadi bo'yicha Ming yillik deklaratsiyasida belgilangan rivojlanish maqsadlariga erishishda xalqaro hamjamiyatga yordam berishni o'z ichiga oladi

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2856,8 ming ga ni tashkil etadi. Bu esa jami respublikaning 44892,4 ming ga yeriga nisbatan 6,4 foizni tashkil etib, eng katta yer maydoni Dehqonobod tumaniga to'g'ri kelib (395,7 ming ga) deyarli Sirdaryo (427,6) va Andijon (430,3 ming ga) viloyatlari maydoniga yaqindir. Mirishkor (312,5 ming ga), Muborak (307,0 ming ga), Chiroqchi (283,7 ming ga) tumanlarida ham yer maydoni katta bo'lib, bu tumanlar guruhi viloyat jami maydonining 45,5 foizini tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyatida mamlakatimiz uchun eng muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari rivojlangan. O'zbekistonning 6.4 foiz yalpi ichki mahsuloti, 8.3 foiz sanoat va 7.2 foiz qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi. Janubiy mintaqa shaharlari orografik jihatdan tog', tog'oldi va tekislikda, gidrografik jihatdan daryo vodiylarida shakllangan. Xususan neft (80 foizi) va tabiiy gazning asosiy qismi (92 foizi), gaz kondensati (95 foizi) va oltingugurt (salkam 100 foizi) qazib olinadi; milliy iqtisodiyot uchun eng zarur hisoblangan gazkimyo, neft- kimyo, kaliy ishlab chiqarish korxonalari



faoliyat ko'rsatmoqda. Urbanizatsiya jarayonida shaharlar va ularning iqtisodiyotiga yuqori ta'sir ko'rsatadi. Aholining shaharlarga ko'chib kelishi shaharlar kengayishi va imkoniyatlar ortishiga va xizmat ko'rsatish hamda ishlab chiqarish va iste'mol ortishiga sabab bo'ldi. Qashqadaryoda shaharlarining joylashuvi, tabiiy-iqlimiy sharoit, yer yuzasining tuzilishi, gidrografik rejim hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida kechgan

Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Viloyatda o'tgan asr oxirlarida yangi yerlar o'zlashtirilishi (Yangi-Nishon, Koson, Beshkent) va gidrotexnik inshoot negizida (Tolimarjon) shaharlari barpo etilgan. Mintaqa aholi manzilgohlarining shakllanishi ikki bosqichda yaqqol namoyon bo'ladi. Qadimdan aholi yashab kelgan (Yakkabog', G'uzor va Shahrisabz) aholi manzilgohlari bo'lsa, ikkinchisi. Mintaqa shaharlar to'ri va tizimini shakllanish nuqtai nazaridan qaralganda, u 1989 yilga nisbatan deyarli o'zgarmagan. Qarshi dashtini o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan shaharlar sanaladi. Bunday shaharlar ayniqsa, shahar Muborakni shakllanishida foydali qazilmalar muhim rol o'ynagan bo'lsa, Miroqi va Qashqadaryo rekreatsiya negizida vujudga kelgan. Mustaqillik yillarida faqatgina shaharchalar sonida o'zgarishlar kuzatildi (6 tadan 11 taga ko'paygan). Hozirgi vaqtda mazkur hududda 31 ta shahar joylar mavjud. Surxondaryo viloyatida 8 ta shahar va 7 ta shaharcha, Qashqadaryo viloyatida esa 12 ta shahar va 4 ta shaharcha joylashgan

Qashqadaryo viloyatida ham eng rivojlangan shaharlar to'rini aholisi 3 ming kishigacha shaharlar egallaydi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda yirik yoki katta shaharlar aholisi 100 ming kishidan ortiq, o'rta shaharlarda 50-100 ming va kichik shaharlarning har birida kamida 50 ming kishigacha aholi bo'lishi kerak. Ilmiylik jihatdan shaharlar tasnifi ancha keng turlangan bo'ladi:

- 10 minggacha - mayda shahar;
- 10-20 ming - kichik shahar;
- 20-50 ming - <<yarim o'rta>> shahar;



- 50-100 ming - o'rta shahar;
- 100-250 ming - katta shahar;
- 250-500 ming - yirik shahar;
- 500 ming - mln. - eng yirik shahar;
- 1 mln. va undan ortiq - millioner shahar.

1 – jadval. Qashqadaryo viloyati shaharlarining klassifikatsiyasi (01.01.2015 y.)

Shahar manzilgohlari kategoriyasi	Shahar manzilgohlar soni	Aholisi, kishi	Jami shahar aholisidagi ulushi (% da)
3 ming kishigacha	29	74,0	5,8
3-5 ming kishigacha	57	218,0	17,1
5-10 ming kishigacha	26	178,8	14,0
10-20 ming kishigacha	13	172,8	13,5
20-50 ming kishigacha	7	206,4	16,9
50-100 ming kishigacha	1	71,4	5,6
100-250 ming kishigacha	1	101,8	7,9
250-500 ming kishigacha	1	251,3	19,7

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Viloyatda 1-pog'onaga kiruvchi shaharlar aholisi 74 ming kishi (jami shahar aholisining 5.8 foizini) ga teng Xususan respublikada 274 ta, Toshkent viloyatiga 36 ta, Farg'onaga esa 46 ta, Qashqadaryoda 29 ta shahar manzilgohlari mansub. Ular jami shahar manzilgohlari sonining mos holda, 31.8, 22.3 va 21.4 foizini tashkil etadi (2016 y).. O'rta



shaharlar guruhi respublikamizning ko'pgina mintaqalarida Farg'ona, Jizzax hududlarida yaxshi shakllanmagan. Andijon, Samarqand viloyatlarida bunday shaharlar ikkitadan, Toshkent va Namanganda uchtdan, qolgan viloyatlarda esa bittadan mavjud. Koson shahrida viloyat shahar aholisining 73 mingi istiqomat qiladi. Bu toifa shaharlar sinfi jami guruhning 5.6 foiziga to'g'ri keladi. Shaharlarning geografik mehnat taqsimotidagi o'ri, bajaradigan funksiyalarini aniqlash doimo muhim hisoblangan. Ayni holdagi toifaga aksariyat agroshaharchalar mansub. 2 va 3-pog'ona ko'proq shaharchalar (Miroqi, Dehqonobod va Tolimarjon), agroindustrial shaharlar (Qashqadaryo) va agroshaharchalardan tarkib topgan. Bu toifada mintqa shahar aholisining eng ko'pi istiqomat qiladi (31.1 foiz).. Aslida tipologiyalar ko'proq sodda bo'lgan va shaharlar mexanik tarzda aholi soniga ko'ra ajratib yuborilgan, Kun chiqar mamlakatda 600 ming kishilik shaharlar milliy ahamiyatga ega, 250-600 minggacha bo'lsa tarixiy shaharlar, 25-250 ming - qishloq tipidagi shaharlar deb ajratilgan. XX asrning 2-yarmida, kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan ko'plab belgilarni (60 ga yaqin) qamrab oluvchi guruhlashtirish keng rivojlandi. Olim Baranskiy N.N genetik tipologiyaning ahamiyatini shaharlarning kelib chiqish davrini bildiradi deb aytgan ammo rivojlanish yo'nalishini ko'rsatmaydi.

Hozirgi kungacha shaharlarni hozirgi holatini, har tomonlama rivojlanishini ko'rsatuvchi tipologiya yaratilmagan.. Katta va yirik shaharlarning barchasi 5-6 va undan ko'p funksiyalarni bajaradi. Shaharlarni funksiyalariga ko'ra turlarga ajratishda shaharda faoliyat ko'rsatuvchi tarmoqlar asosiy o'rin tutadi. Ular ikki turli bo'ladi: shahar hosil qiluvchi tarmoqlar va shaharga xizmat qiluvchi tarmoqlar. Biroq shunga yaqinlardan biri - bu funksional tipologiyadir. Unga ko'ra, shaharlar monofunksional (bir funksiyali) va polifunksional (ko'p funksiyali) shaharlarga bo'linadi. Ba'zan shaharga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar rivojlanib borib, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarga aylanadi.



Funksiyalar ortib borishi bilan shaharlar yiriklashib, ko‘p funksiyaliga aylanib boradi. Ularning orasidagi chegara shartli hisoblanadi, asosan, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan yoki boshqa sohalarga ixtisoslashgan, ya’ni o‘zi ishlab chiqargan mahsulot yoki ko‘rsatayotgan xizmatlari shahar chegarasidan chiqib, boshqa hududlarga yoyilsa va shaharning kengayib rivojlanishiga asos (shaharning iqtisodiy asosi) bo‘lsa, Bu mezon qilib shahar aholisining bandlik tarkibi olinadi. Tarmoqlar shahar hosil qiluvchi, agar faqat shahar uchun yoki shahar aholisini ta’minlash uchunгина xizmat qilsa, u holda shaharga xizmat qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Funktsional tipologiya shaharlarning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o‘mi, “yuzini” ko‘rsatib turadi. Shaharlarning qaysi sohaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash funksional tipologiya doirasida amalga oshiriladi.

qaysi sohada mehnat resurslari ko‘proq (mamlakat shahar joylari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori) bo‘lsa, o‘sha yo‘nalish mazkur shaharning funksional tipini ifodalab beradi.

Odatda, shaharlar quyidagi funksional turlarga bolinadi:

1. Ko‘p funksiyali siyosiy-ma’muriy markazlar, poytaxt shaharlar.
2. Ko‘p funksiyali shaharlar - viloyat markazlari.
3. Ko‘p tarmoqli yirik sanoat markazlari.
4. Kam tarmoqli (1-2) sanoat shaharlari.
5. Transport markazlari.
6. Agroindustrial shaharlar.
7. Tuman markazlari.
8. Rekreatsiya shaharlari.
9. Ilm-fan markazlari.

O‘zbekistonda 1-tip va 2- tipga shaharlariga Toshkent, Nukus va viloyat markazlari Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahri kiradi. Bu viloyat va shaharlar ko‘p tarmoqli



sanoat markazlari, transport tuguni, ilm-fan markazlari ham hisoblanadi.3- tipga asosan Chirchiq, Olmaliq, Angren, Qo‘qon kabi shaharlar mansub, to‘rtinchi guruhga Muborak, Koson, tumnalarini kiritish mumkin. Kogon, Xovos, Qo‘ng‘irot Qarshi - transport shaharlari, Kitob Miraki Chortoq rekreatsiya, Ulug‘bek - fan markazlaridir.

Ma‘lum guruhga funksional guruhlar shaharlarning katta-kichikligiga qarab ham turlanadi. Ayni paytda shaharlarning funksional klassifikatsiyasi vujudga keladi. Mamlakatimizda juda ko‘p shaharlar agroindustrial yo‘nalishga ega, ya‘ni ularda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalaridi, Shaharlar qishloq, tumanlar markazi vazifasini bajaradi. Ammo bunday shaharlar – “kichik poytaxtlar” ayni paytda agroindustrial xarakterga aloqador bo‘lishi e‘tiborli jihatidir.

.Xulosa Bugungi kunda Qashqadaryo yuksak salohiyatli viloyatga aylanib bormoqda . Transport infratuzilmasi va shaharlararo bog‘liqlik – Qarshi markaz sifatida shaharlar to‘rida asosiy o‘rin tutadi. Temir yo‘l, avtomobil yo‘llari va havo transporti rol o‘ynaydi. Qashqadaryo viloyatidagi shaharlarning ham rivojlanishida iqlimning va tabiiy sharoitning ta‘siri juda yuqori bo‘lgani bilan bu yerda antropogen landshaftlarning ta‘siri ham bor. Antropogen landshaftlar shahar tuzilishi va rivojlanishida o‘zining ijobiy va salbiy holatlarini namoyon qilgan. Qashqadaryo viloyatining aksariyat shaharlari Koson, Nishon, Kasbi, Mirishkor va Muborak kabi hududlarda katta maydonlarni egallagan cho‘l maydonlari hududlari kengaydi. Shaharda yashaydigan aholining ekologik vaziyati o‘zgarib ketdi. Buning oldini olish shaharlarda ekologik vaziyatni yaxshilash borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchi navbatda shaharlarda sanoat korxonalarini aholidan yiroq joyda joylashtirish, ikkinchi navbatda esa, daraxtzorlarni ko‘paytirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish lozim. Ko‘pincha bizda qurilgan zavod fabrikalarimiz iqlimning o‘zgarishini hisobga olmasdan bunyod qilingani bugungi kunda ana shunday vaziyatlarga olib kelmoqda. Bugungi kunda Koson, Muborak, Yangi Nishon, Mirishkordagi muammolar bir holatda emas, har bir shaharda har xil



muammolar uchraydi. G'uzor, Kitob, Shahrisabz kabi shaharlarida esa muammolar umuman yangi yerlarni o'zlashtirilgan shaharlardan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PQ-299-sonli "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni;
3. Hakimov N., Jo'raqulov O., Shahrisabz tarixi. - Qarshi, 2001.
4. Qurbonov P. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari // Farg'ona davlat universiteti. – Farg'ona, 2023
5. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma. – T., 2018.
6. Yangiboyev M. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. - Qarshi, 1993;